


2021– yilning yanvar–sentabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi


Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021– yilning yanvar–sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 7505,1 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 105,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 7039,3 mlrd. so‘mni (106,1%), o‘rmon xo‘jaligi – 289,3 mlrd. so‘mni (101,1 %), baliqchilik xo‘jaligi – 176,4 mlrd. so‘mni (105,3 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasining ulushi 3,4 % ni tashkil etdi.



**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot
(xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati**




**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot
(xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (% da)**



2021– yilning yanvar–sentabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 93,8 % – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 3,9 % – o‘rmon xo‘jaligi, 2,3 % – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi



2021– yilning yanvar–sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (1408,7 mlrd. so‘m) va To‘rtko‘l (889,8 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Bo‘zatov (141,9 mlrd. so‘m), Mo‘ynoq tumanlari (98,9 mlrd. so‘m) va Nukus shahrini (37,6 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ko‘rsatkichidan (105,9 %) yuqori o‘sish sur‘atlari Taxiatosh (115,5 %), Amudaryo (112,9 %), Xo‘jayli (110,5 %), Qonliko‘l (109,5 %), Taxtako‘pir (106,5 %), Ellikqal‘a (106,0 %) tumanlarida kuzatildi, Kegeyli (99,7 %), Mo‘ynoq (93,6 %) va Nukus (91,0 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining o‘shish sur‘ati




Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2021– yilning yanvar–sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 6948,5 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 105,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 3061,8 mlrd. so‘mni (109,2 %), chorvachilik mahsulotlari – 3886,6 mlrd. so‘mni (103,3 %) tashkil qildi.


Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

44,1 %
Dehqonchilik
mahsulotlari



55,9 %
Chorvachilik
mahsulotlari

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (% da)**




■ Dehqonchilik mahsulotlari ■ Chorvachilik mahsulotlari

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 67,6 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 28,7 % – fermer xo'jaliklariga, 3,7 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (% da)



2021- yilning yanvar–sentabr oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Taxiatoşh (44,9 %) va Amudaryo tumanlarida (36,5 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Nukus shahrida (98,6 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qonliko‘l tumanida (7,0 %) qayd etildi.


Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Bo‘zatov tumanida (3,6 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Taxiatoşh tumanida (54,4 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Bo‘zatov tumanida (0,6 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2021– yilning yanvar–sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 3061,8 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 109,2 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 44,1 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 166,0 ming t. donli ekinlar (2020– yilning mos davriga nisbatan 89,7 % ni tashkil qildi) ishlab chiqarildi. Donli ekinlar yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmidan 75,3 % fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.




**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi bo‘yicha
donli ekinlar
yetishtirish hajmi, tonna**




Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 199,4 ming t. sabzavotlar (2020–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 2,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 70,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha **sabzavotlar**
yetishtirish hajmi, tonna**




Kartoshka


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 55,2 ming t. kartoshka (2020– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 5,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 75,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha **kartoshka**
yetishtirish hajmi, tonna




Poliz


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● **Fermer xo'jaliklari**

● **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**


● **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**





2021– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 123,4 ming t. poliz (2020– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 3,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 51,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha **poliz**
yetishtirish hajmi, tonna**



Meva va rezavorlar



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 37,3 ming t. meva va rezavorlar (2020– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 2,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar ishlab chiqarish umumiy hajmidan 63,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha **meva va rezavorlar** yetishtirish hajmi, tonna




Uzum


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 5471 tonna uzum (2020– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 4,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 82,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha **uzum**
yetishtirish hajmi, tonna




Chorvachilik



2021– yilning yanvar–sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 3886,6 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 55,9 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2021– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 77,9 ming t. go‘sh (2020– yilning yanvar –sentabriga nisbatan 2,9 % ga ko‘p), 241,3 ming t. sut (3,9 % ga ko‘p), 248,3 mln. dona tuxum (4,5 % ga ko‘p), 82,5 ming dona qorako‘l teri (2,2 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi va 7299,0 tonna baliq (0,9 % ga ko‘p) ovlandi.

Go‘sh t (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O‘shish sur‘ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 77,9 ming t. go‘sh t (2020– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 2,9 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sh t ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sh t ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,2 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.




**Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha go‘sht (tirik vaznda)
yetishtirish hajmi, tonna**




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



**Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 241,3 ming t. sut (2020– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 3,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 91,2 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha ishlab chiqarilgan
sut hajmi, tonna**




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 248,3 mln. dona tuxum (2020– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 4,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 84,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




**Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha olingan **tuxum**
hajmi, ming dona**




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2021– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 7299,0 t. (2020– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 0,9 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 52,4 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha ovlangan **baliq**
hajmi, ming tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2021– yining 1–oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,2 % fermer xo‘jaliklari hissasiga, 93,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 1,0 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 11,3 % fermer xo‘jaliklariga, 86,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 1,9 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 23,9 % fermer xo‘jaliklariga, 73,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,7 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 6,6 % fermer xo‘jaliklariga, 87,2 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 6,2 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.


2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1163,7 ming taga yetdi. 2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 46,7 ming taga (4,2%) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,8% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha **yirik shoxli**
qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh




2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 340,4 ming taga yetdi. 2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 12,6 ming taga (3,8 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati




**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, sigirlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 92,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




**Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha sigirlarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 1167,7 ming taga yetdi. 2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 31,4 ming taga (2,8 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 86,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




**Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha qo‘y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni- 26710 taga yetdi. 2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni –947 taga (3,7 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O‘shish sur‘ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 73,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




**Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha **otlarning**
umumiy bosh soni, bosh**




2021–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni – 4752,6 ming taga yetdi. 2020–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 153,6 ming taga (3,3 %) ko‘paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O‘shish sur‘ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 87,2 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha parrandalarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**



Qishloq xo‘jaligi va ekologiya
statistikasi bo‘limi

• 61-222-76-07
• 61-224-93-11